

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

IJTIMOIIY – IQTISODIYOT FAKULTETI

IJTIMOIIY ISH KAFEDRASI

FAN: UMIMIIY SOTSIOLOGIYA

REFERAT

**MAVZU: GENDER TENGSIZLIKNING NAMOYON BO'LISH
SHAKILLARI**

.

Bajardi: Sirojiddinova Sh.

Tekshirdi: ass.Baxrieva D

Samarqand – 2012 yil.

MAVZU: GENDER TENGSIZLIKNING NAMOYON BO'LISH SHAKILLARI

Reja:

- I. Gender tenglikning ilgari surilishi tarixidan.
- II. Gender tushunchasini hozirgi zamon talqini.
- III. Inson va gender muammosini dialektik aloqadorligi.

Xulosa.

O'zbeklar turmush tarzida oila-nikoh munosabatlari musulmon Sharqi qoidalari asosida belgilab berilgan qoidalar mukammal holatda uzoq davrlardan beri ishlab kelayotganligi bilan ma'lumdir. Shuningdek, sovetlar davrida oila munosabatlarida keltiriladigan ko'plab qonun va qoidalarning musulmon oilasidagi masalalarga mos kelishi yoki kelmasligi mavjud jarayonga zarar yetkazmas edi. Aynan shunday keng ko'lamdagi jarayon sifatida e'tirof etilishi mumkin bo'lgan narsa – bu erkak kishining o'z oilasi ustida qayg'urishi, ya'ni “boquvchi” funksiyasini ado etishligi bilan bog'liqdir. O'g'il bolalarga yoshligidan o'z oilasini ta'minlovchi shaxs sifatida tarbiya berib kelingan. Unga, ba'zan “og'zaki yashirin”, ya'ni atrofdagi ayrim jamotachilik fikrini qo'zg'ashni ma'qul ko'radigan kishilarning ma'lumotlari va ba'zan qaysidir mavjud diniy adabiyotlar vositasida “musulmon dunyosida ko'p xotinlilikka ruxsat etiladi, agar uni har tomonlama ta'minlay olsa, ya'ni har bir erkak kishi diniy va milliy marakalarni bajarishi kerakligi, imkon qadar hovli-joy qilishi, farzandlarni o'qitishi, uy-joy bilan bog'liq jihozlarni topishi” va shu kabi jumlar bilan kishi ongiga ta'sir o'tkaziladi. Aslida esa har qanday o'zbek xonadoni o'z farzandini hyech qachon ko'pxotinlilikka da'vat etmaydi. Bu jihat ularning urf-odat, turmush tarziga to'g'ri kelmasligini farzand tarbiyasida doimiy uqtirib keladilar. Shu sababli ahloqiy, huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy mavzularga oid asarlarda “ko'pxotinlilik” to'g'risida O'rta Osiyo hududida yashagan, ayniqsa davrimizning tadqiqotchi olimlari hyech qachon da'vat etmaydilar. Shu sababli ham o'zbek erkaklari «ko'pxotinlilik” to'g'risida fikr-mulohaza birdirganlarida - “bu holatning musulmonchilikda e'tirof etilishi to'g'risida har qancha og'iz ko'pirtirib gapirmasinlar, ammo real hayotda bu jarayonni ko'p ham o'zlariga ep bilmaydilar. Tabiiyki, shu omil ham o'zbeklarning ijtimoiy-ruhiy xarakterini belgilaydigan muhim jihatlardan biri sanaladi.

Ammo erkaklar uchun ishlab chiqilgan va an'anaga aylantirilgan «bo'ynidagi funksiya (vazifa)ni bajarish» uning ijtimoiy-ruhiy va ma'naviy hayotida qanday ahamiyat kasb etadi? Hamma vaqt ham erkak o'z zimmasiga yuklatilgan «funksiya»ni ado eta oladimi? Agar u o'z zimmasiga yuklatilgan

funksiyani ado eta olmasa unga jamiyat, qolaversa qarindosh-urug'lar, yaqin do'stlar va ayniqsa turmush o'rtog'i qanday munosabat bildiradi? O'z funksiyasini ado eta olmagan erkak taqdiri oxir-oqibatda qanday yakun topadi? Bu kabi savollar shodasi orqali biz qaysidir bir shaklda o'zbeklar turmush tarzidagi gender mavzusining bir jihatiga javob topsak ajab emas.

Ko'p holatlarda "erkak funksiyasi" deyilganda G'arb dunyosi va G'arb ta'siri doirasida fikr yuritadgan odamlar biologik-fiziologik omilni tushunishlari tabiiy. Ammo o'zbek oilasi munosabatlarida tushuniladigan erkak funksiyasi asosan turmush tashvishlari va moddiy imkoniyatlarni udum yoki an'ana sifatida olib qarovchi "erkak" sifatida gavdalanadi. Ammo ushbu funksiya jamiyat hayotida hyech qachon oshkora e'tirof etilmaydi, yoki "kishining ichki "siri" sifatida qadrlanadi. Har bir erkak zimmasiga yuklatilgan holatlardan biri bu, qanday qilib bo'lsa ham "qo'shimcha daromad" qilish iste'dodiga ega ekanligi bilan alohida ahamiyat aks etadi. Agar erkak kishi qaysidir holatda qo'shimcha daromad qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa – hyech qanday ogohlantirishsiz jamiyat a'zolari tomonidan "noshudlikda" ayblanadi. Uning jamiyat ijtimoiy tizimida egallab turgan lavozimi va mavqyeidan unumli foydalana ololmasligi esa, bimalol jamiyat a'zolari, xususan, uning qavmi-qarindoshlari, yaqin do'st-ulfatlari, qo'ni-qo'shnilar va hattoki xotini, ba'zida farzandlari tomonidan ham ayblash uchun to'liq asos vazifasini o'tay oladi. «Falonchi ham sizga o'xshagan odam, siz qilgan ishni qiladi, kasbi ham siznikiga o'xshash, ammo u haqiqiy erkak... ».

Ko'rinib turganidek «erkak» funksiyasi yana moddiy imkoniyatlarga kelib taqaladi. Oila yoki maktab va universitet muhitidan kelib chiqib olingan tarbiya turlicha bo'lganligi uchun, hamma ham o'zida qo'shimcha daromad qilish layoqatini shakllantira olmaydi. Buning ustiga zamon o'zgarishi va bozor iqtisodiyoti jarayonida odamlarda tabiiy ehtiyojlarning oshib ketishi kishidagi mavjud imkoniyatni to'liq namoyon qilishga imkon bermaydi.

Davlatchiligimizning rivojlanishidagi ustuvor yo'nalishlardan biri shaxsning ijtimoiy va siyosiy, binobarin, huquqiy faolligini ta'minlashdir. Jamiyatning ma'naviy va ahloqiy yetukligi darajasi hamisha xotin-qizlarga bo'lgan munosabat

bilan belgilanib keldi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeyi, ularning davlat va jamiyat ishlarida faol ishtirok etishi bilan islohotlarning muvaffaqiyatli kechishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Biroq **«xotin-qizlar masalasi»** deb atalgan muammo so'nggi yillarda kun tartibidan ketgani yo'q.

Xotin-qizlar faoliyati, ularning haq-huquqlarini to'la ta'minlash, o'z huquqlarini davlat va uning idoralari tomonidan qanday himoya etilayotganliklarini bilishlariga ham bog'liq.

Shu bois masalaning muhim va dolzarbligini hisobga olib 2004 yil 25 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **«O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»**gi Farmoni e'lon qilindi. Farmonga ko'ra O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining, respublika Xotin-qizlar jamoat tashkilotlarining ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakatimiz siyosiy-ijtimoiy, sosial-iqtisodiy va madaniy hayotida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlar hamda yoshlarning ma'naviy va intellektual saviyasini yuksaltirish borasida olib borayotgan ishlarining samaradorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Farmonning 2 bandida eng muhim va asosiy vazifa qilib quyidagilar belgilanadi: Xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollarni kasbiy, jismoniy, ma'naviy va intellektual saviyasini yuksaltirish, ularning sosial, ijtimoiy-siyosiy faolligini davlat qurilishi sohasidagi faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan umummilliy siyosatni ro'yobga chiqarish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va uni amalga oshirish; ularni ish bilan ta'minlash masalalri; xotin-qizlarning nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va ular bilan samarali hamkorlikni ta'minlash va boshqalar.

Ushbu Farmonning ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari dasturi to'g'risida 2004 yil 29 iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori chiqadi. Ushbu qarorda o'tgan davrlar ichida mavjud masala bo'yicha olib borilgan ish va tadbirlardagi kamchilik va xatolar keskin masal sifatida o'rta tashlanadi. Jumladan, ayollarning muayyan qismi, ayniqsa qishloq joylarda, xotin-qizlar

qo'mitalarining e'tiboridan chetda qolmoqda, ular o'z holiga tashlab qo'yilgan vash u bois turli, jumladan buzg'unchi kuchlarning ta'sir obyektiga aylanmoqda. Yoki, xotin-qizlar qo'mitalarining faoliyati, eng avvalo, xotin-qizlarni ish bilan taminlash muammosini hal etishga, shu jumladan, vaqtinchalik ish o'rinlari barpo etish, kasanachilik mehnatini tashkil etish va xotin-qizlarni ishga joylashtirishning boshqa shakllaridan foydalanishga qaratilishi zarur. Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moddiy va boshqa yordamlar bilan birga xotin-qizlarga ishlash uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish darkor.

Mustaqillikdan keyin o'tgan qisqa tarixga nazar tashlansa, yangi bozor tizimi hayotiga ijtimoiylashuv erkaklarga nisbatan ayollarda oson kechganini kuzatish mumkin. Mehnat taqsimotining ham an'anaviy, ham zamonaviy ko'rinishidagi turlarida ayollar ishtiroki birlamchi mazmun kasb eta boshladi. «Mehnatga oid ijtimoiy munosabatlar xotin-qizlarning ishtirokisiz amalga oshmaydi. Turli ijtimoiy bosqichlarda ularning hissasi goh oshib, goh kamayib bordi, biroq hamisha xotin-qizlar zimmasiga ijtimoiy-foydali mehnatni amalga oshirib borishga ham to'g'ri kelgan. Shu bois hozirgi sharoitlarda mehnatni uyushtirishga qaratilgan huquq me'yorlari, shubhasiz xotin-qizlarning ana shu ijtimoiy va uy-ro'zg'ordagi mehnatni amalga oshirishga oid xususiyatlarini inobatga olishi lozim».

Davr taqazosi bilan yangi vujudga kelayotgan mehnat o'rinlari yoki turlarini ayollar qanchalik tez zabt etib borayotgan bo'lsalar, an'anaviy davom etib kelgan kasblarni ham erkaklar shu tarzda ayollarga bo'shatib berishga majbur bo'lmoqdalar. Biz tomonimizdan ko'tarilayotgan an'anaviylikni ikki xil holatda ko'rib chiqishni taklif etmoqchimiz. Birinchidan, diniy ta'sirlar ostida shakllangan milliy xususiyatlarga xos uzoq an'anaviylik hamda ikkinchisi - bu sovet tuzumi davrida shakllangan yaqin an'anaviylik. Ammo har ikki holatdagi mehnat taqsimoti jarayonida ayollarning faollashuviga sabab qilib quyidagi mulohazani ilgari surish mumkin: erkaklar tabiiy xususiyatiga ko'ra ishning natijasiga emas, balki bo'ladigan jarayonga e'tiborni qaratadilar, ayollar esa kutiladigan oqibat, ya'ni natijaga tayanadilar.

Bundan 10-12 yil ilgari mamlakatimizda ishsizlik deb atalgan ijtimoiy hodisa mavjudligi tan olinmas edi. Shu bois qonunchilikda ham insonning ish bilan ta'minlash huquqini amalga oshirishni Aniqlaydigan va kafolatlaydigan me'yorlar bo'lmas edi. Ish joylarining yetishmasligi va xo'jalik hisobi uzil-kesil amal qiladigan sharoitlarda faoliyat turini, sheriklarni sotish bozori kabalni mustaqil tanlash aksariyat korxonalarning sinishiga olib keladi. Binobarin, bunday korxonalar tugatiladi va ko'p miqdordagi xodimlar ishdan bo'shatiladi. Ishsizlar sonini tashkil etuvchi ijtimoiy guruhning bir qismini xotin-qizlar tashkil etar edi. Bu esa to'g'ridan –to'g'ri aholi ish bilan bandligining oshkora ta'rifini berish zarurligiga olib keldi. Shunga ko'ra ishsizlikni, kishilarni band etishning tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini belgilash, bu bilan ularga mehnat daromadlari olib keladigan, ularning shaxsiy ehtiyojlarini qondiradigan faoliyat bilan ta'minlash kun tartibidagi masalaga aylandi. Bu xususda 1992 yili 13 yanvarda O'zR «Aholini ish bilan band qilish to'g'risida»gi qonundan batafsil ma'lumotlar olish mumkin.

Endi xotin-qizlarni mehnat bilan band qilish masalasi hozirgi kunda dolzarb masalaga aylanganini va uning huquqat darajasiga ko'tarilganini hisobga olib quyidagi taklif va mulohazalarni ilgari surish mumkin.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda yoshlar ko'rsatkichini demograf va sosiologlar 16-30 yosh orali\ida olishni taklif etadilar.¹ Shundan kelib chiqqan holda Respublika aholisining 50 % ga yaqinini 16 yoshgacha bo'lganlar tashkil etishi ahamiyatga molikdir.² 18-30 yoshgacha bo'lganlar 35 % ni tashkil etib, umumiy hisobda olganda, yoshlar O'zbekiston aholi tarkibining 65 % ni tashkil etadi³.

O'zbekiston Respublikasi statistik ma'lumotlarining 2006 yilgi holatiga ko'ra uning aholisi 26 mln. 568 ming 910 kishini tashkil etadi.⁴ Shundan erkaklar 13

¹ Қаранг: Управление, ценности и образ жизни молодежи в странах Центральной Азии. Т.1.

² Шу жойда.

³ Қаранг: Оценка уровня социальных настроений молодежи Узбекистана. Методология, разработка.

⁴ Қаранг: Образование в Республике Узбекистан.

mln. 343 ming 410 ta yoki 50,1 % va ayollar 13 mln. 225 ming 500 ta yoki 49,9 % dan iborat.⁵

Yosh davrlari bo'yicha aholining demografik ko'rsatkichlari:

- 16-17 yoshlilar - 1 mln. 246 ming 500 ta. Shundan ayollar – 617 ming 400 ta, erkaklar – 629 ming 100 ta;
- 18-19 yoshlilar - 1 mln. 108 ming 500 ta. Shundan ayollar – 550 ming 500 ta, erkaklar – 558 ming 400 ta;
- 20-24 yoshlilar - 2 mln. 402 ming 400 ta. Shundan ayollar – 1 mln 191 ming 400 ta, erkaklar 1 mln. 211 mingta;
- 25- 29 yoshlilar – 2 mln 60 ming 500 ta. Shundan ayollar 1 mln 23 ming 600 ta, erkaklar 1 mln 36 ming 900 ta.⁶

Ta'lim tizimining asosiy kursatkichlari:

- Akademik liseylar – 51 ta. Undagi ukuvchilar soni – 20 ming 500 ta;
 - Kasb-xunar kollejlari – 414 ta. Undagi ukuvchilar soni 366 ming 900 ta;
 - Kasb-texnika ukuv maskanlari – 227 ta. Ukuvchilar soni 63 ming 700 ta;
 - Urta maxsus ukuv maskani – 141 ta. Ukuvchilar soni 158 ming 500 ta.
- Bunda xar 10.000 axoliga 62 tadan ukuvchi tugri keladi.⁷

Oliy ukuv yurtlari buyicha ma'lumot:

- Respublikada jami 64 ta Oliy ukuv yurti faoliyat yuritadi.
- Umumiy talabalar soni 232 ming 300 tani tashkil etadi. Bu kursatkich xar 10.000 axoliga 91 ta talaba tugri kelishini bildiradi.
- 2003 yili 54 ming 600 ta talaba ukishga kabul kilingan.
- Shu yili 39 ming 800 ta talaba ukishni tamomlagan, bu degani xar 10.000 kishiga 16 tadan talaba tugri keladi.⁸

Urta maktab va maxsus gimnaziyalar buyicha ma'lumotlar:

⁵ Шу китоб.

⁶ Каранг: Образование в Респ

⁷ Шу китоб

⁸ Шу китоб

1. Urta maktablarning 10-11 sinflarida ukiydigan ukuvchilar soni 489 ming 700 tani tashkil etadi
2. Gimnaziya tipidagi ukuv maskanlari soni 103 tani tashkil etadi.
3. 2002 yili urta ta'lim tizimini 600 ming 20 ta ukuvchi tamomlagan.

Yukori Oliy ta'lim tizimi – Aspirantura.

- Respublika buyicha 2002-2003 ukuv yilida 2891 ta aspirant ruyxatga olingan.
- Shu yili 810 ta ilmiy xodim aspiranturaga ukishga kabul kilingan.
- Shu yili 1031 ta aspirant ilmiy muassasalarini tamomlagan.
- 133 ta aspirant ilmiy ishni muvaffakiyatli ximoya qilgan.⁹

O'zbekistonda yoshlar ko'rsatkichi 30 yoshgacha bo'lganlar orasida belgilangan. Aholining yillik o'sish ko'rsatkichi 2,2 % tashkil etadi. Shunga asoslangan holatda aholining umumiy soni 26 mln. 480 ming kishini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kasbiy mahorat yuqori mazmun kasb etishini va ikkinchi tomondan kishilarda iste'molchilik kayfiyatining oshib borish sharoitida Xotin-qizlarning ham jamiyat hayotiga faol kirib borishi zaruriy jarayon hisoblanadi. Bu vaqtda an'anaviy turmush tarziga ko'nikkan qishloq ayoli qanday mavqeyeni egallaydi,- degan savol tug'ilishi mumkin. To'g'ri, bu o'rinli savol va unga asosli javob ham bor. Demak, ayollarning asta-sekin mehnat bozoriga kirib kelishi va uni egallashi. Sosiologlar bugungi o'zbek jamiyatida qishloq ayolining mehnat jarayonlaridagi ishtirokini quyidagilarda ko'radi:

- mayda savdo-sotiq yoki tijoratchilik;
- fermer xo'jaliklarida shartnoma asosida ishlash;
- bir marotabalik mehnat bozorlarida qatnashish yoki mardikorlik.

Mustaqillikdan keyin o'tgan qisqa tarixga nazar tashlansa, yangi bozor tizimi hayotiga ijtimoiylashuv erkaklarga nisbatan ayollarda oson kechganini kuzatish mumkin. Mehnat taqsimotining ham an'anaviy, ham zamonaviy ko'rinishidagi

⁹ Каранг: Образование в Республике Узбекистан.

turlarida ayollar ishtiroki birlamchi mazmun kasb eta boshladi. «Mehnatga oid ijtimoiy munosabatlar xotin-qizlarning ishtirokisiz amalga oshmaydi. Turli ijtimoiy bosqichlarda ularning hissasi goh oshib, goh kamayib bordi, biroq hamisha xotin-qizlar zimmasiga ijtimoiy-foydali mehnatni amalga oshirib borishga ham to'g'ri kelgan. Shu bois hozirgi sharoitlarda mehnatni uyushtirishga qaratilgan huquq me'yorlari, shubhasiz xotin-qizlarning ana shu ijtimoiy va uy-ro'zg'ordagi mehnatni amalga oshirishga oid xususiyatlarini inobatga olishi lozim».¹

Davr taqazosi bilan yangi vujudga kelayotgan mehnat o'rinlari yoki turlarini ayollar qanchalik tez zabt etib borayotgan bo'lsalar, an'anaviy davom etib kelgan kasblarni ham erkaklar shu tarzda ayollarga bo'shatib berishga majbur bo'lmoqdalar. Biz tomonimizdan ko'tarilayotgan an'anaviylikni ikki xil holatda ko'rib chiqishni taklif etmoqchimiz. Birinchidan, diniy ta'sirlar ostida shakllangan milliy xususiyatlarga xos uzoq an'anaviylik hamda ikkinchisi - bu sovet tuzumi davrida shakllangan yaqin an'anaviylik. Ammo har ikki holatdagi mehnat taqsimoti jarayonida ayollarning faollashuviga sabab qilib quyidagi mulohazani ilgari surish mumkin: erkaklar tabiiy xususiyatiga ko'ra ishning natijasiga emas, balki bo'ladigan jarayonga e'tiborni qaratadilar, ayollar esa kutiladigan oqibat, ya'ni natijaga tayanadilar.

Bu mulohazalar to'g'ridan-to'g'ri aholini ish bilan bandligining oshkora ta'rifini berish zarurligiga olib keladi. Shunga ko'ra ishsizlikni, kishilarni band etishning tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini belgilash, bu bilan ularga mehnat daromadlari olib keladigan, ularning shaxsiy ehtiyojlarini qondiradigan faoliyat bilan ta'minlashni kun tartibidagi eng dolzarb masalaga aylantiradi.

Ko'pincha biz ommaviy axborot vositalarida, hattoki ko'plab yig'in va tadbirlarda ayollarning hyech qachon bir marotabilik mehnat bozorlarida (mardikorlik) qatnashmaganliklarini ayuxannos solib jar solayotgan kishilar fikrlarini eshitamiz. Bu aslida bozor munosabatlarini hali to'liq anglab yetmayotganligini sababidir. Ayollar bir marotabalik mehnat bozorlari va

¹ Ўзбекистонда хотин-қизлар, қонун ва жамият муаммолари. Тошкент, 1999. – 63 бет.

migrasion jarayonlarda qatnashishga majbur, chunki ularning turmush o'rtoblari asosan qishloq xo'jaligida ishlagan va qishloq xo'jaligi ukladiga moslashgan odamlar ekanligini unutmasligimiz lozim. Mentalitetdagi mavjud stereotiplar kolxoz-sovxoqlar tizimini tugatilishi bilan ularning ruhiyatini shu darajada sindirib tashlaganki, uni yo'qotish uchun juda ham katta sarmoya kerak bo'ladi. Birinchi navbatda yangi zamonaviy ta'lim dasturlari va ikkinchidan gender ta'limotini chuqur o'rganib, o'zbekistonlik ruhiyatida tahlil etish. Agar bunga e'tibor kuchaytirilmasa, qishloq aholisining turmush tarzidagi ijtimoiy-ruhiy kayfiyat izdan chiqib borish holati ekspertlar tomonidan kuzatiladi. Mamlakatda kolxoz va sovxoqlar ixtiyorida bo'lgan yerlarning fermer xo'jaliklariga berilishi, yuqorida t'kidlaganimizdek, minglab kishilarni ishsiz qolishiga sabab bo'ldi. Gender muammolarni yoritayotganimizda aynan biz shu jihatlarga e'tiborimizni qaratsak foydadan holi bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, gender jarayonlar bu zamonaviy xususiyat bo'lmay, u hamma vaqt hamma davrlarda davom etgan. Bugungi kunga kelib gender jarayonlarning bosh masalasi insonning "o'zini namoyon etishi" bilan belgilanadi. Bu degani o'z turmush darajasini yaxshilash, ehtiyoqlarini qondirish uchun o'zidagi barcha imkoniyat (resurs), qobiliyat va iste'dodini imkon darajasida tenglik asosida namoyon etishdir. U aqliy, jismoniy, iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik tarzda namoyon bo'lishi mumkin. Eng asosiysi gender ta'limoti tomonidan kishilarga taklif etilayotgan tenglik jamiyatda yozilgan va ba'zan yozilmagan qonunlarni buzmaslik asosida bo'lsa, ta'kidlash mumkinki O'zbekiston sharoitida Ushbu ta'limot o'zini oqlaydi.

Zamon davlatdan barcha vazifalar va harakatlarga gender yondashuvini singdirishni talab qiladi. Bunday yondashuvning uslubi — hayotning turli sohalarini gender bo'yicha tahlil kilishdan iboratdir. Bu uslub jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida turli davlat dasturlari, qonunchilik yoki siyosiy kursning xotin-qizlar va erkaklar turmushiga ta'sirini baholash imkonini beradi.

Jinslar tengligi tushunchasini to'liq ochib berishga monelik qiladigan to'siqlarning mavjudligiga quyidagilar asosiy sabab bo'ladi:

1. Asosiy e'tibor jinslarning de-yure tengligiga qaratiladi va bu esa xotin-qizlarni har doim ham kamsitishning barcha shakllaridan ham samarali himoya qila olmaydi. Qonunchilik aktlarini ishlab chiqish jarayonida ko'pincha jamiyat faoliyatining umumiy jihatlari hisobga olinmaydi;

2. Xotin-qizlar qo'mitalari o'z vazifalarini amalga oshirishda belgilangan maqsadlarga erishish imkonini bera olmaydigan tuzilmalar doirasida faoliyat ko'rsatadilar. Bu qo'mitalar yuqori darajadagi davlat xizmatchilari tomonidan boshqarilib, nomenklatura bilan uzviy aloqada bo'lsada, ularning faoliyati va vakolatlari muayyan ma'noda cheklangandir. Fuqarolar hayotiga oid qarorlar qabul qilish sohasidagi ta'siri me'yorlangan.

3. Xotin-qizlarning qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki yetarlicha emas, jinslar o'rtasidagi tenglikni ilgari surish muammosi hali saqlanib qolmoqda. Ko'rilyotgan choralarning ko'pchiligi asosan xotin-qizlarning o'ziga xos ehtiyojlariga qaratilib, tengsizlikni keltirib chiqarayotgan qator sabablarni chetlab o'tmoqda.

Insonning moxiyatini bilish kadim zamonlardan boshlab jamiyatning asosiy maksadlari sirasiga kirgan. Mazkur masalaning kadimiyligi mutlako uning eskirib kolganini anglatmaydi. Xar bir davr, xar bir okim bu doimiy muammoni yangi-yangi kirralarini kashf kilishga intiladi.

Jamiyat tarixida juda kuplab keskin uzgarishlar, tub burilishlar bulib, xilma-xil goyalar, karashlar, ta'limotlar uzgarib, yangilanib turgan bulsada, inson moxiyati muammosi, uning odob-etikasi, ma'naviyati masalasi xech kachon sosiologlar dikkat e'tiboridan chetda kolgan emas.

Bugungi kundagi mamlakatimizda amalga oshayotgan isloxatlar xam inson manfaatiga karatilgandir.

Bu siyosat deyiladi, inson va jamiyatning farovonligini munosib turmushini ta'minlashga karatilgan bulishi kerak. Yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishi insonga uning siyosiy, iktisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab

olishini kafolatlashi kerak¹. Inson mohiyati, uning xayotidagi urni va kadr-kimmati, iymon-e'tikodi, odob-etikasi masalasiga Shark faylasuflari tomonidan aloxida e'tibor berilganligiga, dunyoning oliy mavjudoti, duru gavxari xisoblangan odamzod xakida Kur'oni karim va Xadisu-sharifda bayon etilgan bebaxo fikrlar, dasturiy yul-yuriklar asos bulib xizmat kilganligini ta'kidlash lozim.

Kur'onda, biz inson zotini mukarram kilib yaratdik va yer yuzida pok narsalardan rizklantirdik, yerda,suvda yuradigan kilib, vaktlarini yaratib berdik va uzimiz xam kilgan kupgina narsalarimizdan afzal kilib kuydik, degan oyat bor. Shu oyatga binoan olloxning butun olamni yaratishdan maksadi inson bulib,u xamma mavjudot ichida tengi yukdir,eng afzalidir.

Butun borlikning kurki va sharafi bulgan insonda odamiylikning xamma ajoyib jixatlari mavjud. Inson ulkan izzat va xurmatga loyikdir. Navoiy uzining «Vakfiya» asarida, «Butun osmon va osmondagi jami narsalar, butun yer yuzi va yer yuzidagi jami narsalar, xamma dengizlar va unda mavjud bulgan xamma narsalar xama mamlakatlar va ular da bor jami ne'matlar-bari, eng yaxshi narsalar inson uchun, uning baxt-saodati uchun yaratilgan, bularning jami-inson uchun xizmat kilmogi kerak", deb yozgan edi.

Inson dunyoda eng murakkab oliy mavjudot, tabiatning yuksak maxsuloti. Shuning uchun uni anatomiya, fiziologiya, biologiya, genetika singari kator fanlar urganadi. Lekin odam boshka tirik mavjudotlardan farkli ularok fakat tabiiy emas, balki tarixiy, ijtimoiy mavjudot xamdir. Uning ijtimoiy sifatlari bilan tarix, estetika, Etika, ruxshunoslik, iktisod, kabi fanlar shugullanadi.

Sanab utilgan va boshka bir kator fanlar odamni turli tomondan urganadi va turli sifatlarini aniklaydi. Lekin odamni bir butunlik sifatida urganadigan aloxida fan yuk. Odam tugrisida tabiiy va ijtimoiy fanlarda mavjud ma'lumotlarni tuplash va umumlashtirish, yaxlit nazariya yaratish vazifasini falsafa fani bajaradi.

¹ И.Каримов. Узбекистон миллий истиклол, иктисод, сиёсат, мафкура 153-бет.

Sosiologiya fani oliy mavjudot bulgan insonning moxiyatini ochish, ichki dunyosi, odob-etikasi, orzu intilishlari ma'naviyatini bilib olish va undan tegishli xulosalar chikarishga katta yordam beradi.

Sosiologi fani insonning ichki ma'naviy dunyosi, uning kizikishlari, e'tikodi, tushunchalari ming yillar mobaynida shakllanadi, ongda mustaxkamlanib boradi, deb kursatadi. Shunga kura siyosiy, iktisodiy, ijtimoiy munosabatlardagi tub uzgarishlarning maxsuli bulgan inson ongidagi uzgarishlar bir muncha murakkabrok bulib ma'lum vakt ichida yuz beradi. Obyektiv olamda sodir bulgan yoki bulayotgan xodisalar, ularning umumlashmalari asosida inson tushunchalari, ongi, fikri shakllanadi.

Ilmiy muammolarni urganish, dastavval, shu borada kulaniladigan atamalarning ma'nosi va kulamini anik belgilab olishni takazo kiladi. Uzbek tilida "odam" tushunchasiga ma'nodosh bulgan "Shaxs", "Inson" tushunchalari xam mavjuddir. "Shaxs" tushunchasi" fakatgina ijtimoiylikni anglatib, falsafada mustakil kategoriya sifatida kulaniladi. "Inson" tushunchasi esa "odam" tushunchasiga juda yakin bulib, ijobiy-Axloqiy sifatlarni jamlagan odamlarga nisbatan kuprok kulaniladi va shuning uchun Axloqiylikka moyildir. "Odam" tushunchasi "shaxs" va "inson" tushunchalaridan kengrokdir. Bu tushuncha yakin davrlargacha fakat biologik turga mansublikni ifodalaydigan tushuncha, deb xisoblanadi. XIX asming 2chi yarmidan boshlab, odamga biologik tarakkiyotning maxsuli, deb karalayotgan bulsa xam, bu xol undagi ijtimoiy jixatlarni inkor kilmaydi. Odamda biologik va ijtimoiy jixatlarning yaxlit bir butunligi kuzatiladi.

Odamning moxiyatini urganish, avvalo uning boshka turdagi jonzotlardan farklanuvchi belgilarini aniklashni takazo kiladi. Odamni boshka tirik mavjudotlardan ajratib turadigan belgilar juda kup. Bular ichki va tashki, jismoniy, xulkiy va boshka tafovutlar bulib ularning barchasini sanab chikishning uzi ancha vakt talab kiladi. Lekin ana shu tafovutlar silsilasida shundaylari borki, ular tirik mavjudotlar va odamning moxiyatini belgilab beradi.

Kup faylasuflar odam bilan xayvonlarni ajratib turadigan fark bu odamda ongning mavjudligi, deb tushuntirar edilar. Bunday yondashish odam bilan xayvonlar urtasidagi eng asosiy farklardan biri shubxasiz, aks ettirilgan. Lekin fakatgina shu

tafovutni ,tan olib boshkalarini inkor qilish masalani tularok anglab olishga xalakit beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent. 2007 y
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent 2009 y.
3. Uparvleniye, sennosti i obraz jizni molodeji v stranaz Sentralnoy Azii. T.1.1990 g
4. Osenka urovnya sosialnyx nastroyeniy molodeji Uzbekistana. Metodologiya, razrabotka. 1998 g.
5. O'zbekistonda xotin-qizlar, qonun va jamiyat muammolari. Toshkent, 1999. – 63 bet.
6. Sosialnaya psixologiya: uchebnoye posobiye. Otv. red. A.L.Juravlev. M.:PERSE, 2002.
7. Tokareva V.A. Psixologiya nravstvennogo razvitiya lichnosti studenta. - Tashkent. 1989.
8. Ubaydullayeva R.A. Mustakil O'zbekiston: ayol, oila va jamiyat. T.: Fan, 2006.
9. Feldshteyn D.I. Psixologiya vospitaniya podrostka. - M.: Znaniye, 1978.
18. Filippova Yu.V. Psixologicheskiye osnovy raboty s semyey. Yaroslavl, 2003.
11. Shevchenko I.O., Shevchepko P.V. Bolshaya ssmya -kakaya ona? //J. Sosiologicheskiye issledovaniya. - M., 2005, №1.
12. Shneyder L.B. Psixologiya semeynykh otnosheniy. -M.: Aprel-Press, Izd-vo EKSMO-Press, 2000.